



BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARI UCHUN MO`LJALLANGAN "ONA  
TILI VA O`QISH SAVODXONLIGI" DARSLIGIDA MATNLAR TARKIBIDA  
KELTIRILGAN O`XSHATISHLAR USTIDA ISHLASH USULLARI

Mametjumayeva Gulasal Ro`zimurodovna

*Turon Zarmed universiteti o`qituvchisi*

*Annotatsiya: Maqolada boshlang`ich sinf o`quvchilari nutqining jilvadorligini va serqirraligini shakllantirishda 3-sinf "Ona tili va o`qish savodxonligi" darsligida o`xshatishlar bo`lishining muhimligi haqida mulohaza bildirilgan.*

**Kalit so`zlar:** *boshlang`ich ta`lim, o`xshatishlar, ona tili va o`qish savodxonligi kitobi, jumla, tasvir, nutqiy ravonlik, nutq boyligi.*

O`quvchi nutqiga quyiladigan muhim talablardan biri uning, boy, rang-barang va ta`sirchan bo`lishidir. O`xshatishlar o`zbek tilining tamomila o`ziga xos boyligi, bejirim va ta`sirli nutq imkoniyatlariga kuch beradigan tunganmas manba, avlodlar o`rtasidagi obrazlar vorisiyiligini ta`minlashga xizmat qiladigan vositadir. Binobarin, o`quvchilar, shu jumladan, boshlang`ich sinf o`quvchilari nutqini o`xshatishlar bilan boyitish, ularning nutqida o`xshatishlardan foydalanishga o`rgatish ona tili va o`qish savodxonligi predmeti oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

O`xshatish bir narsa, hodisani boshqa bir narsa-hodisaga o`xshatish orqali yorqin va bo`rttirib tasvirlashga asoslangan badiiy tasvir vositasi bo`lib, bunda o`xshatilayotgan narsa-hodisalar uchun umumiy belgi-xususiyatlarga tayaniladi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining tushunish va anglash jarayonlarini osonlashtirish va ularning xotirasida mustahkam o`rin olishi uchun ham boshlang`ich sinf darsliklarida bir qancha o`xshatishlardan foydalanilgan. O`xshatishlar o`quvchilarning tushunishi uchungina emas, shu mashg`ulotlarga bo`lgan, ya`ni, hikoya hamda ertaklarni o`qishga bo`lgan qiziqishini ham shakllantiradi.

Boshlang`ich ta`limning 3-sinf o`quvchilari uchun chiqarilgan "Ona tili va o`qish savodxonligi" darsligida turli xil mavzulardagi o`xshatishlardan foydalanilgan.

**Ba`zida raketalar,**

**Nurday uchib o`tishar** "Astronom bobom" Po`lat Mo`min ( 3-sinf "Ona tili va o`qish savodxonligi" darsligi 18-bet)

Quyida keltirilgan she`riy parchada o`xshatilayotgan narsa-raketa, o`xshatish obyektinur, o`xshatish belgisi-uchib o`tishi, o`xshatishning formal ko`rsatkichi- day. O`quvchilarning she`rni tushunishga osonroq erishish uchun o`xshatishlardan keng foydalaniladi. O`quvchilarda nur haqida tushunchalari mavjud bo`lib, raketada ham nurning xususiyatlari mavjudligiga tayanib, raketa haqidagi tushunchalarini mukammalshtirishni o`z oldiga maqsad qilib yozilgan.

Boshlang`ich sinf o`quvchilariga so`zlarni shunchaki lug`aviy ma`nolarini o`rgatib ketibgina qolmasdan, har bir so`z ma`nolariga o`xshash so`zlar qatorlarini ham bir qatorda



o`rgatib borish o`quvchilarning borliqni anglashlariga juda katta yordam beradi. Har bir ma`lumot o`ziga o`xshash boshqa ma`lumotlar bilan izohlanib, qiyoslanib, ya`ni o`xshatishlar orqali taqqoslanib o`rgatilsa o`quvchilar xotirasida ham chuqurroq o`rin egallaydi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilariga dastur talabiga ko`ra badiiy tasvir vositalaridan o`xshatish, jonlantirish va sifatlash amaliy o`rgatib boriladi.

"Ona tili va o`qish savodxonligi"dagi she`r, ertaklarda o`xshatishlar, jonlantirish va mubolag`alardan foydalanilgan. O`quvchilarga ularni izohlab berish, keyinchalik matndan toptirish, qayta hikoyalashda ulardan nutqlarida foydalanishga o`rgatish zarur.

3-sinf "Ona tili va o`qish savodxonligi" darsligida keltirilgan "Bo`ling harfga hurmatda" she`riga to`xtaladigan bo`lsak, boshqan oyoq o`xshatish vositalariga tayanib yozilgan. O`quvchilarda harflarning yozilishi va o`qilishida chalkashliklarga uchramasliklari uchun bu she`r juda katta ahamiyatga ega. Birgina jumlasini tahlil qilib qarasak:

Alifboda nechta harf,

O`yla aqling qilib sarf!

Go`yo ko`z-u burni bor,

Har bir harfning o`rni bor. (Kavsar Turdiyeva) (3-sinf "Ona tili va o`qish savodxonligi" darsligi 37-bet)

Alifboda o`rin olgan harflarning jamlanmasini insonga, harflarni insonning ko`z va burniga o`xshatish orqali har bir harfning qanchalik muhimligini tushuntirishimizga zamin yaratyapti. Nafaqat har bir harfning muhimligi, balki ularning shakl jixatdan ham inson tana a`zolariga o`xshatilishi o`quvchilarda o`zgacha qiziqish uyg`otadi. Bu she`r orqali 3-sinf o`quvchilariga savod o`rgatish davrida o`rgangan bilimlarini mustahkamlash va chuqurroq xotirasida qolishiga erishiladi.

Bu o`xshatishlar ustida ishlashda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Alifbo nimaga o`xshatilyapti? Nima uchun?

2. She`rda nima ko`z va burunga o`xshatilyapti?

3. Alifboda qaysi harflar ko`z va burunga o`xshaydi? Yana qanday harflarni ayta olasiz inson tana a`zolariga o`xshaydigan?

Yuqorida keltirilgan savol javoblar oraqli she`r mazmunini mukammalroq anglash va o`quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishga erishish mumkin.

Boshlang`ich sinf o`quvchilariga o`z nutqida o`xshatishlardan foydalanishga o`rgatish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

1. Nuqtalar o`rniga o`xshatish mazmuniga mos so`zni qo`yib o`qing.

... day tiniq ko`l, ...day beozor odam, ...day qattiq non.

2. Nuqtalar o`rniga quyida berilgan o`xshatishlardan mosini qo`yib yozing.

1. Ko`m-ko`k Shohimardon tog`lari ... tovlanadi. 2. ... yigit ketmon bilan yer ag`daryapti. 3. Azim bilan Sobir ... qadrdon. 4. Nasiba ... qizarib ketdi. 4. Sinfda bolalar ... g`uvullaydi. 5. Dengiz botib borayotgan quyosh nurlaridan ... tovlanadi. 6. Qahhor aka bu tog`larni ... biladi. 7. Kema ... chayqaladi. 8. Buloqdan ... tiniq suv oqib chiqadi. 9. Osmonda yulduzlar ... sochilib ketgan, juda ko`p edi. 10. Nafisaning yuzi ... oqarib ketdi.



Foydalanish uchun o'xshatishlar: ayiqday baquvvat, aka-ukadek, beshikday, anorday, ariday, besh qo'lday, billurday, zumradday, atlasday, bodroqday, bo'zday.

3. Quyidagi o'xshatishlardan foydalanib gap tuzing.

Dumdek ergashib yurmoq, durday tishlar, yelday uch-moq, yelimday yopishmoq, zilday og'ir, zig'irday kichik, ipakday mayin, kamalakdek tovlanmoq, kaftday tekis, kelinchakdek bezanmoq, kiyikday chaqqon, ko'z qorachig'iday asramoq, marjunday tizilmoq.

O'xshatishlar o'zbek tilining tamomila o'ziga xos boyligi, bejirim va ta'sirli nutq imkoniyatlariga kuch beradigan tuganmas, avlodlar o'rtasidagi obrazlar vorisiyligini ta'minlashga xizmat qiladigan vositadir. Binobarin boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'xshatishlar bilan boyitish, ularni nutqida o'xshatishlardan foydalanishga o'rgatish ona tili va o'qish predmeti oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. O'xshatishlar o'quvchilar nutqini obrazli va ta'sirchan qiladi, o'quvchiga o'z fikrini lo'nda va mantiqli ifodalashga yordam beradi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018.
2. U.H.Umirov "Adabiyotshunoslik nazariyasi" Toshkent-2002.
3. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroev A. Ona tili didaktikasi. – Toshkent.: «Yangi asr avlodi», 2005 – 388b.
4. I.Azimova, K.Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun, M.Karimova Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi Toshkent-2022
5. A.Asallayeva, V.Rahmonov, F.Musurmonqulov. BADIY SAN'ATLAR.- "Tafakkur" nashriyoti, Toshkent-2015.
6. Muzafarovna, Y. M. (2022). TIBBIY PEDAGOGIK YO 'NALISH TALABALARIDA MILLIY AN'ANALAR ASOSIDA BAG 'RIKENGLIKNI RIVOJLANTIRISHGA OID TARIXIY TAJRIBALAR. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 80-84.
7. Inoyatovna, M. D. (2022). THE MAIN PEDAGOGICAL PRINCIPLES OF EDUCATION AND DEVELOPMENT OF GIFTED STUDENTS. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 64-67.
8. Ulug'bek, S. (2022). MAHMUXO 'JA BEHBUDIYNING PUBLISTISTIK HAYOT YO 'LI. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 76-79.
9. Bobirovich, N. M. (2022). ILK O 'SPIRINLIK DAVRIDA SHAXS SHAKLLANISHINING PSIXOFIZIOLOGIK ASOSLARI VA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 68-71.
10. Ro'zimurodovna, M. G. (2022). METHODS FOR ANALYZING THE TEXT OF A WORK OF ART IN ELEMENTARY GRADES. IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 60-63.



11. Valiyevna, F. M. (2022). CONFLICTS AND THEIR NATURE BECOME THE BASIS OF EXPLANATORY MODELS OF PERSONALITY. IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 55-59.
12. Lochinovna, A. M. (2022). O 'QUVCHILARDA O 'ZBEK MUSIQA FOLKLOR HAQIDAGI TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHNING VOSITA VA USULLARI. IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 51-54.
13. Холикова, М. К. К. (2021). ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ ШКОЛЬНИКОВ В ДУХЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ. European research, (1 (38)), 73-75.
14. Makhmudova, D. I., Isabayeva, D. K., & Holikova, M. K. AESTHETIC EDUCATION OF TALENTED STUDENTS IN THE SPIRIT OF NATIONAL PRIDE.
15. Holikova, M. K. IMPORTANT ASPECTS OF AESTHETIC EDUCATION OF SCHOOLCHILDREN IN THE SPIRIT OF NATIONAL VALUES.
16. Shuhratovna, N. M. (2021). Topic Groups of Microtoponyms of Jondor District. Middle European Scientific Bulletin, 8.
17. Qizi, M. D. I., Komiljonovna, I. D., & Azamatovna, M. S. (2021). The essence of educating talented and creatively minded youth in the spirit of national pride. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(5), 383-386.
18. Юлдашева, М. (2020). Розвиток толерантності в історії східної культури. Науковий вісник Ізмаїльського державного гуманітарного університету, (46), С-158.
19. Muzafarovna, Y. M. (2020). DEVELOPMENT OF TOLERANCE IN THE HISTORY OF EASTERN CULTURE. Chief Editor, 5(10).
20. Jobir o'g'li, Y. M., & Roziyabonu, S. (2022). 1-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'RGATISH. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 132-137.
21. YARASHOV, M. (2022). BOSHLANG 'ICH TA'LIMNING DARS JARAYONLARIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TADBIIQ ETISH VOSITALARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 15(15).
22. Jobir o'g'li, Y. M., & Maftuna, S. (2022). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TA'LIM MAZMUNINING TAVSIFI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(9), 144-147.
23. Raximqulovich, I. S. (2020). METHODS OF WORKING WITH TEXT IN LITERARY READING LESSONS IN ELEMENTARY SCHOOL. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research, 1, 345-347.
24. Rakhimkulovich, I. S. (2021). Specific Features of the Text in the Cognitive-Pragmatic Approach. Middle European Scientific Bulletin, 8.
25. Rakhimkulovich, I. S. (2021). READING AND MOTHER TONGUE TEACHING IN PRIMARY SCHOOL DEVELOPMENT THROUGH WORKING ON TEXT.



26. YARASHOV, M. (2022). Characteristics of International Integration of Sciences in Primary Schools. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 23(23).